



TIQXMMI
"TOSHKENT IRRIGATSİYA VA OİSHLOQ
XO'JALIGINI MEXANİZATİSYALASH
MUHANDİSLARI INSTITUTTI"
MTU
MILLIY TADQIQOT UNIVERSITETI



FAN:

**ATROF-MUHITGA BO'LADIGAN TA'SIRNI
BAHOLASH (AMBTB)**

MAVZU
10

**Atrof muhitga bo`layotgan
ta`sirlar ahamiyatliligini
baholash va bashorat qilish**



Razzakov Ruslan Ishqulovich



“Ekologiya va suv resurslarini boshqarish”
kafedrasi katta o’qituvchisi



Reja:

1. Atrof muhit holati sharhi
2. Ta`sirlarning xarakteri,
kattaligi va ahamiyatliligi
3. Ta`sirlarning ahamiyatliligini
baholash

Atrof muhit sharhi

- Atrof muhit bo`yicha ma`lumotlarni yig`ish va tahlil qilishda EBni o`tkazishning asosiy maqsadi: «Mo`ljallanayotgan faoliyat bo`yicha qaror qabul qilishda ekologik omillarni hisobga olish»ni nazarda tutish zarur;
- Ekologik baholash vaqtida tabiiy muhitning faqat ma`lumotlari qaror qabul qilish uchun zarur bo`lgan komponentlari holatigina tahlil qilinadi. Atrof muhitning komponentlarini tanlash, ularda kechadigan o`zgarishlar ta`sirlarni bashorat qilish jarayonida atroflicha o`rganish asosida amalga oshiriladi. Bunda quyidagi masalalarga e`tibor qaratiladi:
 - Mo`ljallanayotgan faoliyat mazkur komponentlar holatiga ta`sir etadimi?
 - Mazkur komponentlar mo`ljallanayotgan faoliyatni amalga oshirishga ta`sir etadimi?
 - Ular jamoatchilik uchun sezilarli ahamiyat kasb etadimi?

Atrof muhit sharhi

- Atrof muhitga ta`sirlarning bashorati va tahlili bosqichi uning ahamiyatli ta`sirlarni aniqlash bosqichi bilan uzviy bog`liqdir, chunki aynan shu ta`sirlar sinchiklab tahlil qilinishi lozim.
- Ikkinchi tomondan aynan ta`sirlarning bashorati va ahamiyatliliginib baholash natijalari EBning (eng avvalo AMBTBBni) asosida yotadi va mo`ljallanayotgan faoliyat bo`yicha loyihaviy, ma`muriy va boshqa turdagи qarorlarni qabul qilishda foydalaniladi.

Atrof muhit sharhi

Atrof muhitning sharhlanishi zarur bo`lgan komponentlari ro`yxati, umuman mo`ljallanayotgan faoliyat turi va kutilayotgan ta`sirlarga bog`liq holda aniqlanadi.

Bunday namunaviy ro`yxatlar tarmoq yo`riqnomalarida yoki yirik kompaniyalarning korporativ ko`rsatmalarida berilishi mumkin.

Berilgan turdagи loyihalar uchun aynan qanday tabiiy sharoitlar yoki atrof muhit komponentlari sharhlanishi lozimligini aniqlashda avval bajarilgan ekologik baholash hujjatlarini tahlil qilish muhim rol o`ynashi mumkin.

Tabiiy sharoitlar va atrof muhit komponentlari xarakteristikasi

- 1. Ob`ektning geografik joylashuvi**
- 2. Iqlim sharoitlari** - temperatura (o`rtacha oylik, o`rtacha yillik, ekstremumlar), yog`ingarchilik (mm), shamol kuchi va yo`nalishi;
- 3. Gidrologiya** (yer usti suvlari ob`ektlari – nomi, sharhi, sifat tarkibi)
- 4. Gidrogeologiya*** (chuqurligi, miqdoriy va sifat ko`rsatkichlari)

Tabiiy sharoitlar va atrof muhit komponentlari xarakteristikasi

5. **Tuproq resurslari** (tuproq turi, foydalanish turlari, sifat ko`rsatkichlari).
6. **Atmosfera havosi xarakteristikasi.**
7. **Bioxilmaxillik** (hayvonot va o`simlik dunyolari, qizil kitobga kirgan turlar mavjudligi, ularning sharhi, muhofaza qilinadigan tabiiy hududlarning tadqiqot ob`ektiga nisbatan joylashuvi).
8. **Tabiiy va tarixiy yodgorliklar.**
9. **Ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlar** (sanoat, demografiya, ijtimoiy ob`ektlar, sanitar-epidemiologik vaziyat) .

Ayrim ekologik ma`lumotlar manbalari (O`zbekiston misolida)

Tabiiy sharoitlar va atrof muxit komponentlari	Ma`lumotlar manbalari
Geografik joylashuvi, Iqlim sharoitlari	O`zbekiston Entsiklopediyasi, O`zgidromet, fond materiallari
Tuproq-o`simlik sharoitlari	O`zbekiston Entsiklopediyasi, O`zbekiston qizil kitobi, QSXV, O`zerloyixa, TIIQXMMI www.natura.uz
Gidrologiya, hidrogeologiya	Irrigatsiya Uzbekistana, QSXV, TIQXMMI, EvaSRB, GvaG kafedralari
Ijtimoiy - iqtisodiy va aholi salomatligi bo`yicha ma`lumotlar	Stathisobotlar, www.stat.uz SES, aholi so`rovnomalari

Tabiiy sharoitlar va atrof muhit komponentlari xarakteristikasi

- Atrof muhit sharhini yozishga tayyorlanishda yana bir marta **ta`sirlarni kutiladigan chegaralari aniqlanishi lozim.**
- Bunda atrof muhitni u yoki bu komponentlari ahamiyatliliginin baholash tamoyillari ta`sirlarning ahamiyatliliginin baholash tamoillari bilan o`xshashligini **ta`kidlash lozim;**

Atrof muhit holati dinamikasi

- Ekologik baholash maqsadi - loyihani amalga oshirilishining bo`lg`usi oqibatlarini bashorat qilish ekanligini nazarda tutilsa, **asosiy vazifa atrof muhit holati kelajakda loyiha amalga oshirilmaganda** (loyihadan voz kechilganda) **qanday bo`lishi mumkinligini tushunishdan iborat bo`ladi.** Bashorat qilinadigan o`zgarishlar aynan shu holatga ya`ni «boshlang`ich chegara» (Baseline) ga nisbatan baholanishi kerak.
- Atrof muhit holati kelajakda tabiiy jarayonlar ta`sirida ham xo`jalik faoliyati ta`sirida ham (EB predmeti) o`zgarishi mumkin.
- Bu o`zgarishlar kuzatilayotgan mo`ljallanayotgan faoliyat ta`sirlarining **ahamiyatliligiga ham fizik qiymatlariga ham o`z tasirini o`tkazishi** mumkin.

Tabiiy sharoitlar va atrof muhit komponentlari xarakteristikasi

Misol. Rejalarashtirilayotgan yangi yo`l kottejlar qurilishi uchun ajratilgan yer maydonidan uncha uzoq bo`lmagan masofadan o`tadi.

Mavjud holatda yo`ldan keladigan shovqin va ifloslanish jiddiy muammo keltirmaydi, biroq kelajakda kottejlarda turuvchi aholi katta noqulayliklar xhis qilishlari mumkin.

Shuning uchun shovqin bilan ifloslanish AMBTBBga qo`shilishi va uning ahamiyatliligini baholashda bo`lg`usi poselkada yashovchi aholining noqulayliklari inobatga olinishi kerak.

Atrof muhitga bo`layotgan ta`sirlar ahamiyatligini baholash va bashorat qilish

- ✓ **Mo`ljallangan faoliyatning atrof muhitga bo`layotgan ta`sirlarining ahamiyatliligini baholash va bashorat qilish** ekologik baholash jarayonining **eng muhim bosqichlaridan** biri.
- ✓ **Mazkur bosqich maqsadi** ko`rib chiqilayotgan muqobil variantlarning har birini amalga oshirish natijasida atrof muhitda qanday o`zgarishlar bo`lishini aniqlash hamda bu o`zgarishlarning **muhimligi yoki ahamiyatliligini baholashdan** iborat.

Mazkur maqsadga quyidagilar asosida erishiladi:

- ✓ Atrof muhitning mo`ljallanayotgan faoliyat ta`sir etishi mumkin bo`lgan komponentlarini o`rganish;
- ✓ Mo`ljallanayotgan faoliyat amalga oshirilishi natijasida atrof muhitda bo`ladigan ehtimoliy o`zgarishlarni tahlil qilish va bashoratlash;
- ✓ Bashorat qilinadigan o`zgarishlarning ahamiyatliligini baholash;

Ta`sirlar tahlilining qadamli sxemasi

Ta`sirlar bashorati odatda atrof muhitning alohida komponentlari bo`yicha amalga oshiriladi. Keyinchalik turli komponentlardagi ta`sirlar bir-birlari bilan o`zaro aloqada bo`lishi tahlil qilinadi hamda ta`sirlarning barcha komponentlar bo`yicha atrof muhitga umumiy ta`sirining ahamiyatliligi baholanadi.

Amalda ta`sirlar baholanishi:

1. Havo muhiti;
2. Suv muhiti (yer usti suvlari);
3. Tuproq va yer osti suvlari;
4. Shovqin vaziyati;
5. Ekotizimlar, o`simlik va hayvonot dunyosi;
6. Landshaft va vizual vaziyatlar;
7. Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyat, shu jumladan aholi salomatligi;
8. Madaniy-ta`rixiy meroslar.

Ta`sirlar tahlilining qadamlı sxemasi

Qadamlar	Havo muhitি
Ehtimoliy ta`sirlarni aniqlash	Atmosferaga chiqariladigan chiqindilar turlari , miqdori va ularning ta`sirlarini aniqlash
Mavjud sharoitlar sharhi	Ta`sir mintaqasini aniqlash Mavjud meteosharoitlarni va havo muhitи ifloslanganligini sharhlash
Mavjud talablar bilan tanishish	Havo bo`yicha ChREM, iflosliklarni tarqalishini hisoblash bo`yicha yo`riqnomalar
Ta`sir miqdorini bashorat qilish	Massa balansi va tarqalish modellarini qo`llash Muhitlararo tarqalishi va iflosliklarning transformatsiyasi modellari
Ta`sirlarning ahamiyatlilagini baholash	Ta`sirlarni standartlar bilan solishtirish Aholining kritik guruhlari, ekotizimlar va madaniy meros nozik reseptorlariga ehtimoliy ta`sirlarni aniqlash
Ta`sir oqibatlarini yumshatish tadbirlarini aniqlash va loyiha ga kiritish	Tashkillashtirilmagan tashlamalarni kamaytirish Chiqindilarni yoqish amaliyotini kamaytirish Tashkillashtirilgan manbalardan chiqariladigan chiqindilarni tozalash Yo`llarda qo`llanadigan avtomobillar/dvigatellar/yonilg`ilar turlarini cheklash

Ta`sirlarning xarakteri, miqdori va ahamiyatliligi

➤ **Nima?**

- Potentsial ta`sirlar va ularni boshqarish tadbirlarini aniqlash va baholash.

➤ **Nima uchun?**

- Resurslarni yuqori xavfni kamaytirish uchun foydalanish.
- Rejalashtirilmagan (kutilmagan) tadbir qimmatga tushadi.


➤ **Qachon?**

- Mobilizatsiyagacha
- Qayta qayta.

Ta`sirlarning xarakteri, mikdori va ahamiyatliligi. Qadamlar

1. Potentsial ta`sirni aniqlash
2. Xavfni baholash.
3. Tegishli choralar qo`llash
4. Qo`llangan tadbirlar
samaradorligini o`rganish

Manba – yo`l – qabul qiluvchi



Potentsial ta`sir mavjudmi?


➤ Ifloslanish manbasi mavjudmi?



➤ To`g`ridan-to`g`ri yo`l mavjudmi?



➤ Nozik qabul qiluvchilar mavjudmi?



Xavf qay darajada jiddiy?

- Tadbirlar – xavfga proportional.
 - Ta`sir oqibati qay darajada katta?
 - Xavf, noziklik, miqdor.

- Ta`sir amalga oshishi ehtimoli qanday?
 - Holatlar takroriyligi, zarar yetkazish ehtimoli kattaligi, qurilish davomiyligi.

Xavf = Oqibat x Ehtimol

Tissayddagi neftni qayta ishlash zavodi

Ehtimoli – kam?

Oqibat – Jiddiy!



FreeFoto.com

Qatardagi neftni qayta ishlash zavodi

Ehtimoli – kam?

**Oqibat –
sezilarsiz/o`rtacha
ogirlilikda.**



Xavfni atrof muhit uchun oqibatlarini yumshatish maqsadida baholash

Xavfga ta`sir etadi:

- Ekologik qabul qiluvchi (ta`sir ostida qoluvchilarining joylashuvi).
- Qurilishning davomiyligi va muddatlari.

Xavfni atrof muhit uchun oqibatlarini yumshatish maqsadida baholash

Ekologik qabul qiluvchi (ta`sir ostida qoluvchilar)
– bu nima?

➤ Bular qandaydir faoliyat ta`siri xavfi mavjud bo`lgan zonada joylashgan hamjamiyatlar yoki ob`ektlari.

- Hamjamiyatlar ekologik yoki aholi punkti ko`rinishida bo`lishi mumkin.
- Ob`ektlar esa binolar (vibratsiya ta`siriga tushuvchi) yoki hatto qurulish maydonining o`zi (eroziyaga uchragan) ham bo`lishi mumkin.

Xavfni atrof muhit uchun oqibatlarini yumshatish maqsadida baholash

Xavf parametrlari: ehtimol

- Katta ehtimol
- O`rtacha ehtimol
- Kam ehtimol
- Juda kichik ehtimol

Xavf tahlili: Xavf ehtimoli

Xavf ehtimoli	Mazmuni	Ball
Katta ehtimol	Hafta davomida bir martadan ortiq ro`y beradi	5
O`rtacha ehtimol	Qurilish bosqichida ikki yoki ko`proq marta ro`y berishi mumkin	3
Kam ehtimol	Qurilish bosqichida bir yoki ikki marta ro`y berishi mumkin	2
Juda kichi ehtimol	Qurilish bosqichida ro`y bermasa kerak	1

Xavf tahlili: Xavf oqibatlari

Xavf parametrlari: oqibatlar

- Katastrofik
- Jiddiy
- O`rtacha og`irlikda
- Sezilarsiz

Xavf tahlili: Oqibatlar: katastrofik

Oqibatlat	Mazmuni
Katastrofik	<p>Atrof muhit va yaqin joylashgan hamjamiyatlarga ta'sir etuvchi o'ta katta zarar yoki ta'sirlar. Masalan:</p>
	<ul style="list-style-type: none">○ Tuproq qatlamlarini, suv resurslarini, suv sifatini sel oqimlari urib ketishi oqibatida o'ta jiddiy yo'qotishlari
	<ul style="list-style-type: none">○ Tuproq va suv resurslarini o'ta jiddiy ifloslanishi shu jumladan xavfli materiallar bilan
	<ul style="list-style-type: none">○ Ekotizimlarning o'simlik va hayvonlar o'limiga olib kelgan keng miqyosli zararlanishi
	<ul style="list-style-type: none">○ Aholiga keng miqyosli ta'sirlar, noqulayliklar, kasallik va jarohatlanish holatlarini keltirib chiqarilishi
	<p><i>Yuqorida keltirilganlarning har bir holati shubxasiz ishlarning to'xtatilishi va katta jarimalarga olib keladi</i></p>



Xavf tahlili: Oqibatlar: Jiddiy

Oqibatlat	Mazmuni
Jiddiy	<p>Atrof muhit va yaqin joylashgan hamjamiyatlarga ta`sir etuvchi jiddiy zarar yoki ta`sirlar. <i>Masalan:</i></p> <ul style="list-style-type: none">○ Tuproq qatlamlarini, suv resurslarini, suv sifatini sel oqimlari urib ketishi oqibatida jiddiy yo`qotishlari○ Tuproq va suv resurslarini jiddiy ifloslanishi shu jumladan xavfli materiallar bilan○ Ekotizimlarning ayrim o'simlik va hayvonlar o'limi holatiga olib kelgan sezilarli zararlanishi○ Aholiga jiddiy xavotir va noqulayliklar keltirib chiqarilishi○ Arxiologik yoki tarixiy qiymatga ega bo`lgan uchastkalarni jiddiy zararlanishi yoki majburiy ko`chirilishi <p><i>Yuqorida keltirilganlarning har bir holati shubhasiz ishlarning to`xtatilishi va jarimalarga olib keladi</i></p>





Xavf tahlili: Oqibatlar: o`rta o`girlikda

Oqibatlat	Mazmuni
	Atrof muxit va yaqin joylashgan xamjamiyatlarga ma`lum darajada ta`sir etuvchi zarar yoki ta`sirlar. <i>Masalan:</i>
	<ul style="list-style-type: none">○ Suv oqimlari sifatining mahalliy miqyosda, qisqa muddatli sezilarli o`zgarishlari
	<ul style="list-style-type: none">○ Ekotizimlardagi qisqa muddatli sezilarsiz o`zgarishlar
	<ul style="list-style-type: none">○ Aholiga yetkazilgan uncha katta bo`lmagan xavotir va noqulayliklar
	<ul style="list-style-type: none">○ Arxiologik yoki tarixiy uchastkalarni qisman yoki cheklangan buzulishlari
<i>O`rta o`girlikda</i>	<i>Yuqorida keltirilganlarning har bir holati shubhasiz ishlarning to`xtatilishi va jarimalarga olib kelmaydi</i>





Xavf tahlili: Oqibatlar: sezilarsiz

Oqibatlat	Mazmuni
	<p>Atrof muhit va aholiga minimal salbiy ta`sir yoki umuman ta`sir yo`q. <i>Masalan:</i></p> <ul style="list-style-type: none">○ Suv oqimlari sifatida o`lchash mumkin bo`lgan miqdordagi yoki sezilarli o`zgarishlar yo`qligi; Suv oqimlari sifati ruxsat etilgan chegaralarda qoladi○ Ekotizimlardagi sezilarsiz yoki juda kam seziladigan o`zgarishlar○ Aholi ayrim hollarni e`tiborga olmaganda norozilik bilan murojaat qilmaydi○ Arxiologik yoki tarixiy uchastkalarni sezilarsiz yoki juda kam seziladigan buzulishlari
Sezilarsiz	<p><i>Yuqorida keltirilganlarning xar bir holati shubxasiz ishlarning to`xtatilishi va jarimalarga olib kelmaydi</i></p>

Xavflar tahlili

Ta`sirlar toifalari matritsalari

XAVF EHTIMOLI va uning darajasi	XAVFLAR OQIBATLARI va ularning miqdorlari			
	Katastrofik (5)	Jiddiy (3)	O`rtacha o`g`irlida (2)	Sezilarsiz (1)
Katta ehtimol (5)	Yuqori		O`rtacha	
O`rtacha ehtimol (3)	Yuqori		O`rtacha	
Kichik ehtimol (2)	O`rtacha		Past	Past
Juda kichik ehtimol (1)	Past			

Proporsionallik

XAVFni baholash quyidaliarni ifodalashi kerak:

- ✓ Atrof muhitni sezgirligi
- ✓ Ishning yangiligi va hajmi
- ✓ Ishning murakkabligi
- ✓ Masshtablar



TOSHKENT IRRIGATSIYA VA QISHLOQ
XO'JALIGINI MEXANIZATSİYALASH
MUHANDISLARI INSTITUTI



E'TIBORINGIZ UCHUN RAHMAT!